

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI VA METODLARIDAN FOYDALANISH

Iskandarova Farangiz Quvondiq qizi

Qorako'1 pedagogika texnikumi maxsus fanlar o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15673028>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar va zamonaliviy metodlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasiga, mustaqil fikrlashiga va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, STEAM, interfaol metodlar, raqamli platformalar, elektron darsliklar, multimedia vositalari kabi vositalarning ta'lism samaradorligini oshirishdagi roli yoritiladi.

Maqolada tajriba asosida olingan natijalar, amaliy misollar va innovatsion yondashuvlar asosida berilgan takliflar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lism, STEAM, elektron darsliklar, multimedia vositalari, metodik yondashuv, ta'lism samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar.

THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article analyzes the importance of using innovative technologies and modern methods in the educational process, their impact on students' motivation to learn, independent thinking, and the formation of practical skills. It also highlights the role of tools such as STEAM, interactive methods, digital platforms, electronic textbooks, multimedia tools in increasing educational efficiency. The article also presents the results obtained based on experience, practical examples, and suggestions based on innovative approaches.

Keywords: innovative technologies, interactive methods, digital education, STEAM, electronic textbooks, multimedia tools, methodological approach, educational efficiency, pedagogical innovations.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье анализируется важность использования инновационных технологий и современных методов в образовательном процессе, их влияние на мотивацию студентов к обучению, самостоятельность мышления и формирование практических навыков. Также освещается роль таких инструментов, как STEAM, интерактивные методы, цифровые платформы, электронные учебники, мультимедийные средства в повышении эффективности обучения. В статье также представлены полученные на основе опыта результаты, практические примеры и предложения, основанные на инновационных подходах.

Ключевые слова: инновационные технологии, интерактивные методы, цифровое образование, STEAM, электронные учебники, мультимедийные средства, методический подход, образовательная эффективность, педагогические инновации.

So'nggi yillarda pedagogika nazariyasiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi. Bu esa pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqada ekanligidan dalolat beradi.

Tushunchalarning aksariyati texnika va iqtisod sohalaridan kirib kelgan bo'lib, aynan shu sohalar insoniyat fikrining rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda ta'limning iqtisodiyligi va takomillashganligi, o'qituvchi va o'rgatuvchi texnika va texnologiyalar, ta'lim iqtisodi, o'qitishni kompyuterlashtirish haqida turli-tuman fikrlar bildirilmoqda.

“Innovasiya – yangilik” so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga, tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq ho'jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi.

Pedagogik termin sifatida esa innovasiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo'lib, unga turli ta'riflar va fikrlar bildirilmoqda.

Innovasiya jamiyat paydo bo'lishidan boshlab o'zgarib kelmoqda. Ba'zi pedagoglar innovasiya so'zini tor ma'noda ta'limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda.

Ta'lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o'qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar.

Innovasiyaga – yangilikka pedagogik tushuncha sifatida berilgan ta'riflarga to'xtalamiz.

Fransuz olimi E.Bransuik pedagogik yangilikning uch turini ko'rsatadi:

1. yangilik sifatida butunlay yangi, ilgari mavjud bo'limgan g'oya va harakatlар yuzaga keladi;
2. ko'pchilik yangiliklar ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir muhitda g'oya va harakatlarni moslashtirishni, kengaytirishni yoki o'zgartirishni talab etadi;
3. pedagogik yangiliklar vaziyatga qarab sodir bo'ladi. Bu yangiliklar o'zgaruvchan talablar orqali qayta qo'yilgan maqsad asosida ilgari mavjud harakatlarni jonlantiradi va g'oyalarning samaradorligi ta'minlaydi.

Amerikalik Bil va Bolenlar pedagogik yangiliklarni faqatgina “materialdagи o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yangilik emas, balki qarashlar va qo'llanishdagi kompleks yangilik” sifatida ta'riflaydilar. Bunda o'zgarishlar va komples o'zgarishlarga ta'rif berilgan.

Nayxof yangiliklarni jarayon sifatida ta'riflab: “Bu jarayon qandaydir g'oyadan boshlanadi va uning o'zgarishiga ta'sir qiladi, istemolchilarning qabul qilishi yoki inkor qilishi bilan yakunlanadi”, deb e'tirof etadi.

Marklund yangilik va o'zgarishlar orasidagi farq haqida quyidagicha tushuncha beradi:

“Yangilik tushunchasi mакtabda va ta'lim jarayonida o'zgarish so'zi bilan o'xshash holda qo'llaniladi. Agar bu o'zgarish mакtab tizimini qamrab olsa, uni islohot deb qabul qilinadi.

Ammo har qanday o'zgarishni ham yangilik deb qabul qilib bo'lmaydi. Yangilik oldindan qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlashi lozim. Yangilik har doim bir yoki bir necha sifatli mezonlarni hosil qiladi”.

Umumiy ensiklopediyada yangilik tushunchasi “yangi, yangilanish, yangilik – texnik va texnologik kashfiyotlar va yutuqlarning amaliyotga joriy etilishi” sifatida ta'riflanadi.

Maxsus va pedagogik adabiyotlarda innovasiya ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi mualliflar tomonidan turlicha ta'riflanadi.

O'zbekistonlik olim pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxo'jaeva innovasiya so'ziga ta'rif berib quyidagilarni e'tirof etadi : "Innovasiya" (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik – bu bevosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar". (N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T. 2003.49-50 betlar)

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida innovasiya so'zi quyidagicha izohlanadi: "innovasiya – inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro bo'lib, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mahoratni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, faoliyat doiralarida qo'llanilishi" deb ko'rsatilgan. (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002.169-bet)

"Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yanligilik va o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilaniladi". (R.J.Ishmuhamedov. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. –T. 2004. 3-bet)

Yangilik va o'zgarishlar haqida ba'zilar yangilikni, boshqalar son jihatdan o'zgarishni, uchinchi toifa insonlar sifatning o'zgarishi, deb ta'riflaydilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining ham takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishini ta'minlab beradi. Shuningdek, yangillikka bo'lgan ehtiyoj ta'lif sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda.

O'quv yurtiga talaba yoki o'quvchi bilim olish uchun keladi, o'qituvchi esa talabaga bilim berishdan tashqari, unga bilim berishning eng qulay, samarali yo'llarini izlab, ta'lif jarayonini tashkil etadi. Pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlashlari, o'quvchilarga ta'lif berishlari uchun ta'lif jarayoniga yangiliklarni tadbiq etishni bilishlari shart. Mana shunga ko'ra innovasiya – yangilik atamasi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Endi esa innovasiyani ta'lif-tarbiya ishida to'liq va aniq qo'llash uchun uning mazmun, mohiyatini tushunib etish lozim. Bu bir qadar vaqt talab qiladi.

Maktab o'quvchilari o'zlarini shaxs sifatida namoyon etishga intiladilar. Buning uchun xilma-xil faoliyat turlarini egallashga kirishadilar. Ta'lif jarayonida o'qituvchilar ham o'quvchining barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Innovasiya orqali o'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlarini optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Ta'lif jarayonining samaradorligi esa ushbu o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishiga bog'liq, albatta.

Ta'lif jarayoni innovasiya orqali yuksak saviyada tashkil etilsa bo'lajak mutaxassislarda intellektual faollik namoyon bo'ladi. Intellektual faollilik esa bo'lajak mutaxassisning har tomonlama tayyorgarlik ko'rishiga, bo'lajak faoliyatning ustasi bo'lib etishishiga yordam beradi.

Intellekt (latincha intellectus – ya'ni aql, idrok, zehn) degan ma'noni anglatadi. Bu degani kishining bilish faoliyati, tor ma'noda tafakkuri, fikr yuritish jarayonini shakllantirish demakdir.

Zamonaviy pedagogikaning vazifasi o'quvchilar inttelctal faolligini oshirishda ta'lism jarayoniga yangiliklarni qo'llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta'lism jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda. Shuning uchun ta'lism jarayonida qo'llaniladigan yangilikni tasniflash (klassifikasiyalash) zarur.

Talim sohasidagi yangiliklar, ta'limga yangilik va o'zgartirish kiritish, mavjudlarini yaxshilash va takomillashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun har doim ham ta'lism jarayonida qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Xozirgi davrni jamiyatning barcha sohalari kabi ta'lism sohasida ham katta va tezkor o'zgarishlar davri deb atash mumkin. Yangiliklarning turli ko'rinishlari mavjud. Yangiliklarning turlari asosan metodologik sabablarga ko'ra ajratiladi.

Ta'lism sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, bir sohadagi yangiliklar, istalgan boshqa sohada yangiliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta'limning ayrim komponentlarida yangiliklarning joriy etilishi, qo'llangan yangiliklarning umumiyl samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Ta'lism jarayoni yangiliklarini klassifikasiyalashda (tasniflash) innovasiya inson faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligini hisobga olish lozim. Bu faoliyat jiddiy chegaralar va bo'linishlardan holi. Yangilikka ta'lism jarayonining hamma tushunchalari va aspektlarini kiritish va ularni bir tushunchaga mujassamlashtirish qiyin. Yangilik ta'lism mazmunini tashkil qilish jarayonida uning metodologiya va texnologiyasiga ta'sir qiladi.

Lekin shunday bo'lsada ta'lism jarayonida qo'llaniladigan yangilikni tasniflash zarur.

Bizning fikrimizcha birinchi asosiy mezon bu yangilikning qanday muhitda joriy qilishga bog'liq. Ikkinchi mezon yangilikni qo'llashning yo'llari, uchinchisi yangilik joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to'rtinchi mezon – yangilikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asos.

Ta'limning qaysi sohasiga yangiliklarning kiritilishi va qo'llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi yangiliklarni kiritish mumkin: 1) ta'lism mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida. Yangiliklarni joriy qilishning yo'llaridan qat'iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

a) tizimli, rejali, oldindan o'ylangan;

b)kutilmagan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan, to'satdan paydo bo'lgan. Yangiliklarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat'iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin:

a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;

b) qisman, kichik, mayda.

Yangilikning paydo bo'lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin:
a) tashqi va b) ichki.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar ta'lism oluvchi manfaatdorligining yuksak darajasini belgilaydi, natijada ta'lism jarayonining samaradorligi ortadi.

Yangiliklarni joriy qilish asosida ta'lism berish quyidagi holatlarda yuqori samara beradi:

1) shaxsiy qiziqtiruvchi omillarga asoslangan bo'lganda. Talabalar o'quv jarayoni uchun mas'uliyatli bo'ladalar, chunki ular o'z ehtiyojlarini yaxshi biladilar.

2) birinchi navbatdagt ehtiyojlarga javob berganda. Ta'lim talabalarning birinchi navbatdagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qishga intilish yuqori darajada bo'ladi.

3) o'quvchilarning jalb etilishini ta'minlanganda.

O'quv jarayonida sustkashlik bilan emas faol ishtirok etish.

4) mustaqil fikrga asoslanganda.

O'quv jarayoni mustaqil fikrga asoslanganda, u eng katta samara keltiradi; talabalar birlaridan o'rganadilar.

5) teskari aloqani ta'minlaganda.

Samarali bilim berilishi uchun yo'naltiruvchi va qo'llab quvvatlovchi teskari aloqa mavjud bo'lishi talab etiladi.

7) o'rghanuvchilarga nisbatan hurmat namoyish etilganda.

Murabbiy hamda o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lishi o'quv jarayoniga yordam beradi.

8) do'stona muhit yaratilganda.

Do'stona kayfiyatda bo'lgan talaba cho'chib o'tirgan, hayajonlanayotgan, badjahl talabaga nisbatan materialni ancha osonroq o'zlashtirib oladi.

9) qulay vaziyat sodir bo'lganda.

Talabada o'zlashtirishga nisbatan motiv hosil bo'lsa, o'quv materialini tez va oson o'zlashtiradi.

O'qitishga nisbatan an'anaviy va texnologik o'qitishning qiyosiy tahlili

Mezonlar	An'anaviy o'qitish	Texnologik o'qitish
Maqsad	Bilim berish, ko'nikma shakllantirish	Hamkorlikdagi faoliyat orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
O'rghanuvchining roli	Ko'rsatmalarga bo'yasinadi; Axborotni passiv qabul qiladi; axborotni o'zlashtiradi; o'rganish jarayoni uchun qisman mas'ul	O'z g'oyalarini taklif qiladi; o'zaro bog'langan; faol ishtirok etadi; ta'lim jarayoniga to'liq mas'ul
O'qishga qiziqtirish (motivasiya)	Tashqi jamiyat tomonidan tazyiq ko'rsatiladi (oila, din, urf-odatlar va sh.k.); O'rghanuvchi o'qishning shu zahotlik foydasini ko'rmaydi	Ichki qiziqtiruvchi omillar. O'rghanuvchi shu zahotlik foydani anglaydi
Mazmun tanlovi	O'qituvchi nazorat qiladi. O'rghanuvchi qisman tanlaydi yoki umuman bunday huquqqa ega emas	Ta'lim mazmuni talabalar tanlagan muammolarini echishga yo'naltirilgan
Jarayon	- direktiv (ko'rsatmali) yondashuv - talqin qiladi va baholaydi - mavzu bo'yicha ko'proq va yaxshiroq biladi	- demokratik yondashuv - tinglaydi, qo'llab quvvatlaydi, har bir kishining fikri va g'oyalarini qabul qilishga tayyor

	- mutaxassislik tilida so'zlaydi	- talabalar tilida so'zlaydi
Usullar (metodlar)	Talaba dalillar, axborot oladi	O'qitish talabalarning bilim va ko'nikmasiga asoslanadi
Qaror qabulqilish	Qarorni o'qituvchi qabul qiladi	Qaror birgalikdagi faoliyat davomida qabul qilinadi hamda u guruh va o'qituvchining muvaffaqiyatli hamkorligi natijasi hisoblanadi

Ta'lism jarayoniga yangiliklarni joriy qilishda talabalarda motiv komponenti hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Motivlarni hosil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Berilgan bilim va ko'nikmalarning zarurligini tushuntirish;
- Shaxsiy mas'uliyat hissini yaratish;
- Jarayon vaqtida ishtirokchilarning qiziqishini uyg'otish va saqlab turish;
- Orttirilgan bilimlardan hayotda qanday foydalanish mumkinligini tushuntirish;
- Ma'qullah, e'tirof etish, rag'batlantirish;
- Sog'lom raqobat;
- Olingan bilimlardan kelajakda talabalar qanday muvaffaqiyatlar qozonishilarini mumkinligi haqida muloqot qilishga imkon berish;
- Tanlash imkoniyatini yaratish.

Shuni ta'kidlash lozimki motivlar hosil bo'lishi uchun talabalarda ehtiyoj tug'ilishi lozim.

Ehtiyojlarni e'tiborga olishda quyidagi imkoniyatlar yaratilishi kerak:

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lism to'g'risida»gi qonuni. – T.: 1997
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: 1997
3. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya. Pedagogik mahorat. – T.: “O'qituvchi”, 2003
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo (v prep. yurid.dissiplin) – Tashkent, “Iqtisod-moliya”, 2006
5. Aleshina G. P. O vejlivosti, takte i delikatnosti... — L., 1990